



UDK:091

**Maxmut MAMATOV,**  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti, professori v.b., f.f.d*  
*E-mail: mmamatov@shdpi.uz*

*TIQXMI professori, f.f.d Q.Nazarov taqrizi asosida*

### “MA’NAVIY TARAQQIYOT TAMOYILLARI” VA UNING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada “Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili asosida “Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchasini shakllantirish ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda ro’y beradigan voqea-hodisalar, ular bilan bog’liq turli jarayonlar ta’lim amaliyotida ahamiyatga ega. Bu maqolada ma’naviy qadriyatlar orqali inson mohiyati, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etilishi haqida ma’lumotlar, ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha ekanligi, kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, tasavvurlarini o’z ichiga olishi yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Tushuncha, qonun, harakat, tamoyil, ma’naviy-axloqiy rivojlanish, rivojlanish, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ma’naviyat, ma’naviy-axloqiy tarbiya, zamonaviy ta’lim, rivojlanish bosqichlari.

### «ПРИНЦИПЫ ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ» И ИХ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье на основе социально-философского анализа принципов духовного развития рассматривается формирование понятия «принципы духовного развития». Подчеркивается, что этот процесс происходит не только под воздействием социальных, экономических и политических факторов, но и в духовно-просветительской сфере, в которой важную роль играют события и явления, а также связанные с ними различные процессы, имеющие значение в образовательной практике. В статье представлена информация о том, что через духовные ценности раскрывается сущность человека, его ценность как живого существа. Отмечается, что духовность является понятием, отражающим внутренний мир человека – его духовную и интеллектуальную сферу, а также включает в себя философские, правовые, научные, художественные, нравственные и мировоззренческие представления людей.

**Ключевые слова:** Понятие, закон, движение, принцип, духовно-нравственное развитие, развитие, духовно-нравственные ценности, духовность, духовно-нравственное воспитание, современное образование, этапы развития.

### “THE PRINCIPLES OF SPIRITUAL DEVELOPMENT AND THEIR SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS”

Annotation

In this article, based on the socio-philosophical analysis of the principles of spiritual development, the formation of the concept of “principles of spiritual development” is examined. It is emphasized that this process occurs not only under the influence of social, economic, and political factors but also within the spiritual and educational sphere, where events, phenomena, and related processes that are significant in educational practice play an important role. The article highlights that through spiritual values, the essence of a human being and their worth as a living entity are revealed. It is noted that spirituality is a concept reflecting a person’s inner world – their spiritual and intellectual sphere – and also encompasses philosophical, legal, scientific, artistic, moral, and worldview perspectives of individuals.

**Key words:** Concept, law, movement, principle, spiritual and moral development, development, spiritual and moral values, spirituality, spiritual and moral education, modern education, stages of development.

**Kirish.** Ko’p millatli O’zbekistonda davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri – xalqning tinch va osuda hayotini ta’minlashdan iborat. Jamiyatimizdagi o’zaro hurmat, mehr-oqibat va bag’rikenglik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg’un yashash tamoyili tobora mustahkamlanib borayotganini bugungi kunda jahon xalqlari tobora ko’proq e’tirof etmoqda. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Ma’naviyatsizlik va g’oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo’lishi bilan bog’liq misollarni insoniyat tarixidan ko’plab keltirish mumkin” [1]. “Bu jihatdan, ma’naviyat insonga xos ezgu xususiyat va fazilatlar majmuasi bo’lishi bilan birga, bizningcha, har bir jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, ma’naviy qadriyatlar majmuidir.

“Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchasi “ma’naviyat” tushunchasi bilan o’zaro aloqadorlikda namoyon bo’ladi. Shu ma’noda, “Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari”

tushunchasi uchun asos bo’lgan “Ma’naviyat” tushunchasi shaxs, millat va jamiyatning ma’naviy-axloqiy munosabatlari, aloqa va muloqotlari majmuasini o’zida mujassam etib, ijtimoiy taraqqiyot tamoyillarining muhim ko’rinishini ifoda etadi” [2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur tushunchadagi “ma’naviyat” atamasi inson, xalq va jamiyatning nomoddiy mohiyatga ega bo’lgan taraqqiyot tamoyillari, qadriyatlari hamda o’zaro munosabatlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, u insoniyatning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi asl mohiyatini ochib beradi. Ushbu yo’nalishdagi zamonaviy manbalarga murojaat qiladigan bo’lsak, “Ma’naviyat (arab. ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy taraqqiyot tamoyillari bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat taraqqiyot tamoyillarining ajralmas qismi bo’lgan ijtimoiy hodisa” [3]. Falsafiy fanlar nuqtai nazaridan ushbu masalaga yondashilsa: J.Tulenov, X.Shayxova, A.Erkayev, Q.Nazarov, F.Ravshanov, V.Qo’chqorov kabi O’zbekistonlik olimlarning turli

mavzularidagi tadqiqotlari, risola va monografiyalariga tayanish mumkin.

“O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati olimlari tomonidan ishlab chiqilgan “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati”da “Ma’naviyat” tushunchasining tarixiy va zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy jihatlarini bayon qilingan”.[4] F.Musayevning “Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari” [5] monografiyasi va shu mavzudagi doktorlik ishida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga demokratiya mezonlari asosida baho beriladi.

A.Erkayev “ma’naviyat” tushunchasiga bunday ta’rif beradi: “Ma’naviyat – ijtimoiy ongning nisbatan umumiy (umummilliy) ahamiyat kasb etgan, e’tiqod va qadriyatlar darajasiga ko’tarilgan sobit ehtirolari, tushunchalari, meyorlari, ijtimoiy mo’ljallari, omillaridir, ularning badiiy, ilmiy, falsafiy, diniy merosda, urf-odatlarda obyektivlashgan tizimi hamda millatni muayyan maqsadlarga erishish uchun yo’naltiradigan milliy iroda, milliy g‘urur va or-nomusdir. U jamiyatda qaror topgan va insonning asl mavjudligini ta’minlaydigan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitdir”[6].

“Falsafa: izohli lug‘at”ida ushbu ta’riflar va tavsiflarni umumlashtiruvchi mezonni aniqlashga harakat qilingan. Ushbu lug‘atga ko‘ra, “Ma’naviyat” tushunchasi aksariyat falsafiy sistemalarda ruh (keyinroq-bilim) rivojlanishining yuksak taraqqiy qilgan shakliga nisbatan ishlatilgan.

Ta’kidlash joizki, bu ta’rifda “ma’naviyat” tushunchasiga ko‘proq ijtimoiy-falsafiy yondashuv o‘z aksini topgan. Masalaning siyosiy jihatidan ko‘ra, ma’naviyatning yaxlit hodisa sifatida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy mezon ekaniga urg‘u berilgan. Bu serqirra jarayonda ma’naviyatning inson va jamiyatga nisbatan tayanch ruhiy omil vazifasini bajarishi bilan bog‘liq fenomenal xususiyati ko‘rsatilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** “Manbalarga tayanadigan bo‘lsak, “Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” kategoriyasi esa, an’anaga ko‘ra, turli tuman ma’nolarda – iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axborot, ta’lim va boshqalar bilan aloqador serqirra tushuncha sifatida qo‘llaniladi. Ilmiy nuqtai nazardan olib qaraganda bu tushuncha–ko‘plab o‘zaro harakatlanuvchi subyektlar tomonidan shakllantiriladigan tizim bo‘lib hisoblanadi. Ma’naviy taraqqiyot tamoyillarining funksional o‘ziga xosliklari bilan belgilanadigan munosabatlar tizimi sifatida bu hodisa siyosiy jarayonlarda o‘ziga xos aks etadi, albatta”[7].

Qolaversa, har qanday jamiyatning ma’naviyatini yuksaltirish uchun ham bu sohada siyosatda bir tomondan, moddiy taraqqiyot tamoyillari sohalarini, ikkinchi tomondan ma’naviyat yo‘nalishlariga mos tamoyillarga e’tibor qaratish

lozim. Aynan shunday asosdagina iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy sohalarining uzviy bog‘liqligini ta’minlash mumkin. Ma’naviyat lug‘atida ta’kidlanganidek, ushbu hayot sohalarini bir-biridan ajratish, birini boshqasiga qarama-qarshi qo‘yish, birini bo‘rttirish, mutlaqlashtirish, qolganlarini mensimaslik yoki ikkinchi darajali, deb o‘ylash ko‘plab xato va yanglishlar, yo‘qotishlarga olib kelishi mumkinligini unutmaslik lozim. 2021 yil 26 mardagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan yangilash to‘g‘risida”. [8] qarorlari maqolamizning eng muhim nazariy asosi va tayanch metodologik hujjatlaridir.

**Tahlil va natijalar.** Falsafiy fanlar nuqtai nazaridan, bugungi kunga kelib dunyodagi global muammolarning keskinlashishi va ularni bartaraf etishning ma’naviy-mafkuraviy omillari bilan bog‘liq masalalarini tahlil qilishga e’tibor kuchaydi. T.Jo‘rayevning “Milliy davlatchilik: xavfsizlik va barqarorlik”, Sh.B Qahhorovning “Global ma’naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi” kabi monografiyalari va kitoblari muhim ahamiyatga ega. [9] Shu bilan birga, ijtimoiy-siyosiy fanlar yo‘nalishida keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida R.Jo‘rayevning “O‘zbekistonda umumdavlat va hududiy manfaatlar mutanosibligiga erishish mexanizmlarini takomillashtirish”, [10] F.N.Jurakulovning “Fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida davlat ijroiya hokimiyati tizimini modernizatsiyalash”ga, [11] bag‘ishlangan dissertatsiyalarni alohida ta’kidlash lozim.

**Xulosa va takliflar.** Jamiyat va ma’naviy taraqqiyot tamoyillari va inson omili, madaniy-ma’rifiy jarayonlar bilan bog‘liq fikrlar ko‘plab Sharq va G‘arb ijtimoiy-falsafiy tafakkuri namoyandalari ijodiy merosida o‘z aksini topganini alohida ta’kidlashimiz lozim. Aksariyat bizga zamondosh olimlar va mutaxassislarining asarlari va dissertatsiyalarida ushbu soha bilan aloqador ko‘plab mavzu va muammolarning o‘rganilganlik darajasi haqidagi mulohazalar va ma’lumotlar ana shu manbalarga murojaat qilishdan boshlanishi bejiz emas. Xulosa qilib aytganda, bizning davrimizga kelib maqolamiz mavzusi bo‘yicha O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyot tamoyillari: Dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, inson qadri uchun, Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyai sari, hamma narsa inson uchun, inson-jamiyat-davlat, kattalarni kichiklarga o‘rnak bo‘lish, mamlakatlarning demokratik tamoyillari asosida kelajagimiz yosh avlodini tarbiyalash bizning asosiy vazifalarimizdir. Ushbu tamoyillar xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi sifatida xalqaro ham jamiyat tomonidan ham e’tirof etilmoqda.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan ma’lum bo‘ldiki, ma’naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash uchun asos bo‘la oladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: „Ўзбекистон“, 2016. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари.Т.: Ўзбекистон, 2020
2. М.Маматов Monografiya Yangilanayotgan o‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omili . Т-“MAKON SAVDO PRINT” 2024 - 222 bet
3. Назаров Қ.. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли лугати. - Т., Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. - Б.333
4. Назаров Қ, ва бошқалар. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли лугати. – Тошкент: Маънавият нашриёти, 2021. – Б. 778.
5. Мусаев Ф.. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари –Т.: “Ўзбекистон”, 2007.
6. Эркаев А.. Маънавият – миллат нишони. -Т., “Маънавият”, 1997. - Б.46-47
7. Mamatov M.. Yangilanayotgan o‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omili. Dissertatsiya Toshkent – 2023 yil 226 bet.
8. Ш.М.Мирзиёев Миллий тараққийёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз , “Ўзбекистон” I қисм НМИУ, 2019й. 418 бет.
9. Жўраев Т.. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. –Т. Akademiya, 2007. 252 б.; Қахҳорова Ш.Б. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. – Тошкент: Тафаккур, 2009 448б.
10. Жўраев Р. Ўзбекистонда умумдавлат ва ҳудудий манфаатлар мутаносиблигига эришиш механизmlарини такомиллаштириш. Сийсий фанлар фалс. доктори дисс.– Т.: ЎзМУ, 2017;